XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA SHAHAR KENGASHINING

Q A R O R I

2023 - yil 31 - may VI-87-62-11-169-K/23 Farg‘ona shahar hokimligi

Fag‘ona shahridagi ayrim mahalla fuqarolar yig‘inlarini bo‘lish va ularning chegaralarini belgilash haqida

Farg‘ona shahar Adliya bo‘limining 2023-yil 23-may kungi 5-sonli xulosasini ko‘rib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 24-moddalariga asosan, Xalq deputatlari Farg‘ona shahar Kengashi

QAROR QILADI:

1. Farg‘ona shahar Adliya bo‘limining 2023-yil 17-apreldagi 1-1-1/289-2-sonli taqdimnomasi ijro uchun va 2023-yil 23-may kungi 5-sonli xulosasi asos uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obektlarni nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 4-martdagi 48-sonli Qaroriga asosan, “Shakarqishloq” hamda “Mash‘al” mahalla fuqarolar yig‘inlari negizida Davlat kadastr palatasi Farg‘ona shahar filiali tomonidan Farg‘ona shahar hokimligiga taqdim etilgan mahallalar hududiy chegaralarini aks ettirgan chizmasi asosida yangi mahalla fuqarolar yig‘inlari tashkil etilsin.

3. Geografik obektlarga nom berish va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasiga:

- shaharning “Shakarqishloq” hamda “Mash‘al”mahalla fuqarolar yig‘inlari negizida yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inlariga qonunchilikda belgilangan tartibda nom berish masalalarini ko‘rib chiqish;

4. Davlat kadastr palatasi Farg‘ona shahar bo‘limi (O.Karimov)ga:

Farg‘ona shaharda yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inlaridagi turar va noturar obektlarni kadastr hujjatlariga tegishli o‘zgartirish kiritish vazifasi yuklatilsin.

5. Farg‘ona shahar hokimining qurilish, kommunikasiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi (J.Baxtiyorov);

- shaharning “Shakarqishloq”, “Mash‘al” mahalla fuqarolar yig‘inlari negizida yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inlariga hamda “Sh.Rashidov” va “Iftixor” mahalla fuqarolar yig‘inlariga davlat xususiy sherikchilik asosida mahalla fuqarolar yig‘ini binosini qurish choralarini ko‘rsin.

6. Mahalla fuqarolar yig‘ini raislari (oqsoqollari) saylovini tashkil etish va o‘tkazishga ko‘maklashuvchi shahar komissiyasiga;

- shaharda yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inlarida fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruhi tomonidan O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi to‘g‘risida”gi Qonunining 15-moddasida belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va samarali bajarish vazifasi yuklatilsin.

7. Shahar hokimligi Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (N.Umarov)ga:

- yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘inlarining shtatlari jadvalini tegishli tartibda shakllantirish vazifasi yuklatilsin.

8. Shahar Statistika bo‘limiga;

- yangi tashkil etilgan mahalla fuqarolar yig‘inlarining statistik ko‘rsatkichlariga belgilangan tartibda zaruriy o‘zgartirishlar kiritish vazifasi topshirilsin.

9. Farg‘ona shahar Davlat xizmatlari markazi (D.Ortiqov);

- yangi tashkil etilayotgan mahalla fuqarolar yig‘inlarini belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish choralarini ko‘rsin.

10. Qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashi kotibiyatiga yuklatilsin.

11. Mazkur qaror qabul qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

Kengash raisi **V.Nazarov**